

## BAQTRIYA -YALAVBARDORLAR O'LKASI

**To'lqinov Abdulla G'anisher O'g'li**

*Termiz Davlat Universiteti Pedagogika Instituti Tarix yo'nalishi talabasi*

**Anatatsiya:** *Qadimgi O'rta Osiyo hududidagi eng qadimgi tarixga ega bo'lgan, o'lkalardan biri. Qadimiy manbalarda shunday dalolat beradiki, eramizdan avvalgi 8 asr o'rtalarida yirik Baqtriya podsholigi mavjud bo'lgan. Avestoda uning nomi Baxdi, Behistun yodgorliklarida Baktirish, antik davr adabiyotlarida Baktriana sifatida qayt etilgan. Qadimgi baqtriya bilan o'sha davr dunyosining boshqa davlatlari- Ossuriya, Yangi Vavilon, Hindiston knyazligi o'rtasida aloqalar mavjud bo'lgan. Ushbu maqolani yozishimizdan maqsad. Qadimgi Baqtriya o'lkasi haqida qiziqarli ma'lumotlar berish.*

**Kalit so'zlari :** *Avesto, Ahuramazda, Doro II, Gerodat, Strabon, Plutarx, Arrian, Fushe, Qiziltepa, Afg'oniston, Mazori Sharif, Xitoy.*

O'zbekiston arxeologiyasi faniga munosib xissa qo'shgan arxeologik olim Zafar Hakimov Baqtriya moddiy madaniyati haqida batafsil ilmiy tadqiqotlar olib borib quyidagi ma'lumotlarni taxlil qilidi. Uning Baqtriya to'g'risidagi ma'lumotlarida, "Avesto" ning (Videvat, birinchi fargard) manbalarda izoh berilgan: " Menkim Ahuramazda mamlakatlar ichida eng yaxshi mamlakat yashash joylari ichida eng yaxshi yashash joyi bo'lmish go'zal va yalavbardor Baxdiyni yaratdim", degan fikriga to'xtalib, o'z fikrlarini bayon etdi. Olimning ilmiy fikriga ko'ra, Baqtriya ( Baqtriana, Baqtriani ) Amudaryo yo'qori oqimi bo'ylab joylashgan qadimgi tarixiy- madaniy o'lkadir. Hozirgi Afg'onistonning shimoliy va markaziy viloyatlari, O'zbekiston va Tojikistonning janubiy hududlarini qamrab olgan. Bu nom Amudaryoning irmog'I- Baqtr (hozirgi Balhob ) daryosi nomidan olingan. Qadimgi Baqtriya shimolda So'g'diyona, janubi -g'arbda Arahoziya, g'arb tomonda Oriayana davlatlari va janubi -sharqda Hindikush to'g'lari bilan chegaradosh. Viloyat poytaxti Baqtr (hozirgi Balx) shahri bo'lib, Afg'onistonning Balx viloyatida , Mozori Sharifdan, 30 km masofada joylashgan. Tarixan Baqtriya irrigatsiyaning qudratli tizimi bilan sug'oriluvchi tog' oldi hosildor vohani egallagan bo'lib, mazkur sharoit tufayli qishloq xo'jaligi ( dehqonchilik ) davlati sifatida shuhrat topgan. Shuningdek, uning hududidan Buyuk Ipak yo'lining Xitoydan Yevropa va Osiyoga olib boruvchi eng muhim savdo shahobchalari o'tkan.

Baqtriyaning bir qismi shimol tomonga qarab Oriyo chegaralari yoqalab cho'zilib ketgan, ko'proq qismi esa Oriyoning yuqori tomonida sharq yo'nalishida yastangan. Baqtriya bepayondir va zaytun yog'idan boshqa har turli mahsulotlar ishlab chiqaradi. Artimitalik Apallodorning so'ziga qaraganda Hindistonga ham hukmronlik qildilar. Ular Iskandardan ham ko'proq qabilalarni o'zlariga bo'ysindirdilar; ayniqsa Menandirga (agar rost bo'lsa, u sharqda Gipanisdan oshib o'tib Imaygacha yetib

brogan); bazi qabilalarni o'zi bo'ysindirib boshqalarni esa Yevtidimning o'gli Baqtriya shohi Demitriy zabt etdi.

Strabon ( taxm. mil avv 64/ 63 yy. Taxm . mil avv. 23/24yy.) Baqtriya tarixi va madaniyatiga ilmiy jihatdan qiziqish XVIII asr o'rtalarida yuzaga kelgandi. ( T. Z . Bayer, V. V. Tarn, A. K. Narayan va boshqalar,) ulardan birinchi marta memorchilik, haykaltaroshlik, amaliy san'at, tanga zarb qilishga oid Yunon va sharq usullarining sintizi haqida aytib utilgandi. Baqtriya moddiy va badiiy madaniyatini o'rganish tarixidagi yangi bosqich XIX asr oxiridan boshlandi, bunga Britaniya muziyiga Tojikistonning Qabadiyon qishlog'idagi 1889-yil xufiyona sotib olingan 180 dona qadimiy tilla buyumlar sabab bo'lgan, keyinroq Ahamoniylar ( mil avv VI-IV asrlar ) davri bilan sanalgan noyob topilma fanda mashxur Amudaryo xazinasi sifatida malum. " Avesto " matnlari va qadimgi yunon mualliflari (Gerodot, Strabon, Ktisiy, Pompey trog, Pliney, Plutarx, Arrian va hokazolar) yozib qoldirilgan noyob asarlar yevropa va rus tillariga tarjimalari Markaziy Osiyo, jumladan Baqtriyaning tarixini anglash sohasidagi yangi ilmiy konsibsiyalar va loyihalar keltirib chiqaradi. Mazkur asarlarning mazmuni Ellin oykuminalari ( aholi yashaydigan joy) tub xalqi yashaydigan joydan tashqaridagi mamlakatlar va xalqlar to'g'risidagi ma'lumotlarga ega edi.

<< Baqtriyaning tabiati boy va xilma xildir. Ayrim joylarda mevali daraxtlar va uzumzorlardan sersharbat mo'l -ko'l hosil olinadi. Minglab chashmalar, buloqlar yerlarni so'g'oradi. Tuprog'I yumshoq joylarga bug'doy ekiladi, qolgan yerlar yaylovga qoldiriladi. Tuprog'i hosildor yerlarda odamlar ko'p bo'ladi. Ushbu viloyat poytaxti Baqtriya Paropamiz ( Hindikush ) tog'i etaklarida joylashgan. Poytaxt devorlari yonidan Baqtriya daryosi oqib o'tadi. Shahar va viloyatning nomi shundan kelib chiqqan>> Kvint Kursiy Ruf. Shunday qilib Baqtriyaning antik va qadimgi tarixini o'z ichiga olgan katta davr o'z nihoyasiga yetgan, bu davr ichida boy xo'jalik iqtisodiy va shaharsozlik, me'moriy, madaniy va boshqaruv salohiyati to'plangan edi. Shu tufayli ham bu viloyat qadimgi sharqning qudratli davlatlaridan biri bo'lgan va ko'plab davlatlar bilan savdo aloqalari olib borgan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- [1] Surxon Vohasi Moddiy Madaniy Tarixi. 2013. Tursunov.Pardayev.
- [2] O'zbekiston Tarixi ;Davlat va Jamiyat Taraqqiyoti 2000 Sagdullayev.Aminov.
- [3] Vatan Tarixi 2010 Shamsiddinov.Karimov.
- [4] O'zbek Xalqining Etnogenizi va Etnik Tarixi 2007 Asqarov.